

**MAGNIT SUYUQLIK {Ni(NO₃)₂•6H₂O}_x YOPISHQOQLIK KOEFFITSENTINI
O'LCHASH.**

Abduraxmonov Asliddin Murtozayevichh
Jizzax politexnika instituti
Fizika kafedrasи, assistenti
asliddinabdurahmonov246@gmail.com

Annotatsiya: Magnit suyuqliklarning fizik xossalarini, shu jumladan magnit xossalarini o‘rganishga bo‘lgan qiziqish ularning elektron tuzilishining o‘ziga xosligi va amalyotda keng qo‘llanilishi bilan ham bevosita bog’liqdir.

Kalit so‘zlar: Magnit suyuqlik, 3d-qobiq elektronlari, ichki ishqalanishning nisbiy koeffitsienti,

Magnit suyuqliklar - sirt faol moddalar yoki polimerlar yordamida qutbli (suv yoki spirt) va qutb bo‘lmagan (uglevodorodlar va silikonlar) muhitda barqarorlashtirilgan, o‘lchamlari 5 nanometrdan 10 mikrometrsgacha bo‘lgan zarrachalari bo‘lgan magnit materialarning (ferromagnitlar: magnetit, ferritlar) kolloid dispersiyasi. Ular ikki yildan besh yilgacha barqaror bo‘lib qoladi va hali ham magnit xususiyatlar bilan birlashtirilgan yaxshi suyuqlikka ega.

Bu magnit suyuqliklar tarkibida 3d-qobiq elektronlari kechikib to‘ladigan temir guruhi metallarining mavjud bo‘lishi, ularning kinetik, magnit va boshqa fizikaviy va ximiyaviy xossalarining o‘ziga xosligiga sabab bo‘ladi. Bu xossalarni o‘rganish bevosita magnit suyuqliklarning amaliy ahamiyati bilan bog’liq. Chunki bugungi kunda magnit suyuqliklardan sanoatda, mashinasozlikda, tibbiyotda va boshqa ko‘plab sohalarda qo‘llanilib kelinmoqda. Shu maqsadda biz mazkur maqolada tarkibida 3d-metallari bo‘lgan, {Ni(NO₃)₂•6H₂O}_x magnit suyuqlikning yopishqoqlik koeffitsientini kontsentratsiyasiga bog’liqlik natijalari keltirildi.


O‘lchash qurilmasining tavsifi. Suyuqlikning yopishqoqlik koeffitsienti kapillyar vikozimetrdan foydalanib aniqlandi. Asbob U simon shisha naydan iborat bo‘lib, bu nayning tirsaklaridan biriga yuqori qismida **a** rezervuari bo‘lgan, **k** kapillyar kavsharlangan. Ikkinchisi tirsakning pastki qismi ichki diametri keng bo‘lgan nay orqali **b** rezervuarga kavsharlangan. Tajribadan oldin suyuqlik **b** rezervuarga quyiladi, so‘ngra u **a** rezervuarga suriladi. Shundan so‘ng suyuqlikning o‘z og‘irligi ta’sirida oqishiga imkon beriladi va suyuqlik sathining **m₁** belgidan, **m₂** belgigacha pasaygan vaqt oralig‘i o‘lchanadi (1-rasmga q). Suyuqlikning zichligi va vikozimetrnинг o‘lchamlarini bilgan holda suyuqlikning yopishqoqlik koeffitsienti aniqlandi.



Lobachevsky
University




Magnit suyuqliklarning sintezi juda kichik o‘lchamdagи zarrachalarni olish, ularni tegishli tashuvchi suyuqlikda barqarorlashtirish va hosil bo‘lgan dispersiyani tortishish va magnit maydonlarda sinab ko‘rish bosqichlarini o‘z ichiga oladi.



Dastlab tajribada suvning, so‘ngra namunaning oqib chiqish vaqtлari aniqlandi. Suyuqliklarning oqib chiqish vaktлari t_0 va t ni hamda ularning ρ_0 va ρ zichliklarini bilgan holda ichki ishqalanishning nisbiy koeffitsienti η/η_0 ni topish mumkin. Suvning η_0 qiymatini jadvaldan olib, namuna yopishqoqlikning absolyut η koeffitsienti. Puazeyl 1-rasm qonunidan foydalanib, quyidagi formuladan hisoblab topish mumkin:

$$\eta = \eta_0 \cdot t/t_0 \quad (1)$$

xona temperurasida olib borildi. (1) formuladan foydalanib olingan tajriba natijalari quyidagi grafikda keltirilgan:



2-rasm

Bu rasmdan ko‘rinadiki, magnit suyuqlikning tarkibidagi $\{\text{Ni}(\text{NO}_3)_2 \cdot 6\text{H}_2\text{O}\}_x$ massa ulushiga yopishqoqlik koeffitsienti bog’liq ekan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROYXATI:

1. E.Ya. Blum, A.O. Sebers “Magnitnye jidkosti. Novoe v jizni, nauke, texnike”. Ser. “Fizika”; №4, 1-64, 1989
2. Taketome, S. Tikadzumi magnitniy jidkosti. Moskva “Mir” 1993
3. Kalaeva S.Z., Makarov V.M., Shipilin A.M. Sposob polucheniya magnitnoy jidkosti iz jelezosoderjashix otxodov proizvodstva // Izvestiya vissix uchebnix zavedeniy. Seriya “Ximiya i xim. Texnologiya”, Nauka, 2002 y.



Lobachevsky
UNIVERSITY



4. Bruk E. T., Fertman V. Ye. "Yoj" v stakane. Magnitnie materiali: ot tvyordogo tela k jidkosti. Minsk, Visheyshaya shkola, 1983.
5. Razumovskaya I.V. Nanotexnologiya. 11 klass. Uchebnoe posobie. – M:Drofa, 2009y.
6. Shtolts R. Jurnal "Texnika molodejji" №5, 1994y.
7. M. V. Avdeev, V. L. Aksenov .Malouglovoe rasseyanie neytronov v strukturnix issledovaniyax magnitnix jidkostey UFN. -2010. - T. 180. - S. 1009-1034.



LORACHEVSKY
UNIVERSITY

